

HARBIY-AMALIY SPORT TURLARINING RIVOJLANISHI YOSHLARDA VATANPARVARLIK HISSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Axmedov Yusuf Maxmudovich

Sport faolyati va chaqiriqqacha harbiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Ro'ziboyev Ramziddin Boymurodovich

Norboyev Ilhom Xo'jaqul o'g'li

Ibrohimov Sherzod Hasan o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

Sport faolyati va chaqiriqqacha harbiy ta'lim kafedrası
chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada harbiy-amaliy sport turlarining yoshlar orasida vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishdagi roli o'rganilgan. Harbiy-amaliy sportning jismoniy va ma'naviy tarbiya elementlarini birlashtiruvchi xususiyati, yoshlarni jamoaviy ishga o'rgatishi va qiyinchiliklarga dosh berish ko'nikmalarini rivojlantirishi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bu sport turlarini maktab va oliy ta'lim muassasalarida kengaytirish orqali yoshlarning vatanparvarlik hissinı mustahkamlash va ularni sog'lom turmush tarziga rag'batlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari harbiy-amaliy sportning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy tarbiya vositasi sifatida muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Harbiy-amaliy sport, yoshlarda tarbiya, vatanparvarlik, jismoniy rivojlanish, ma'naviy rivojlanish, jasorat va fidoyilik, sport va ma'naviyat

РАЗВИТИЕ ВОЕННО-ПРИКЛАДНЫХ ВИДОВ СПОРТА КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ

Ахмедов Юсуф Махмудович

преподаватель кафедры спортивной деятельности и довузовской военной
подготовки

Розибоев Рамзиддин Боймуродович

Норбоев Илхом Ходжақилович

Ибрагимов Шерзод Хасан угли

Термизский государственный педагогический институт,
кафедра спортивной деятельности и довузовской военной подготовки,
направление подготовки «Довузовская военная подготовка», студент 2 курса

Аннотация: В статье изучена роль военно-прикладных видов спорта в формировании у молодежи патриотизма, мужества и самоотверженности. Особое внимание уделено сочетанию физических и духовных аспектов воспитания,

которые обеспечивает этот вид спорта, обучению молодежи коллективной работе и развитию навыков преодоления трудностей. В статье рассмотрены возможности расширения практики военно-прикладных видов спорта в школах и высших учебных заведениях для укрепления патриотических чувств и формирования здорового образа жизни. Результаты исследования подтверждают, что военно-прикладной спорт является важным инструментом не только физического, но и духовного воспитания, способствуя всестороннему развитию личности.

Ключевые слова: военно-прикладной спорт, воспитание молодежи, патриотизм, физическое развитие, духовное развитие, мужество и самоотверженность, спорт и духовность.

DEVELOPMENT OF MILITARY-APPLIED SPORTS AS A KEY FACTOR IN FOSTERING PATRIOTISM AMONG YOUTH

Ahmedov Yusuf Maxmudovich

Lecturer, Department of Sports Activities and Pre-Conscription Military Training

Roziboyev Ramziddin Boymurodovich

Norboyev Ilhom Khojaqulovich

Ibrohimov Sherzod Hasanovich

Termiz State Pedagogical Institute,

Department of Sports Activities and Pre-Conscription Military Training,

Pre-Conscription Military Training Program, 2nd-year Student

Abstract: This article explores the role of military-applied sports in developing patriotism, courage, and selflessness among youth. The unique feature of military-applied sports, combining physical and moral education elements, the ability to teach young people teamwork, and develop resilience and perseverance skills, is analyzed in detail. Moreover, the article highlights the potential of expanding these sports in schools and higher education institutions to strengthen patriotism and encourage a healthy lifestyle among young people. The research results confirm the importance of military-applied sports not only as a means of physical education but also as a tool for moral and ethical development.

Keywords: military-applied sports, youth education, patriotism, physical development, moral development, courage and selflessness, sport and morality

Harbiy-amaliy sport turlari –xarbiy xizmatchilar va maxsus xizmat olib boruvchi shaxslar tomonidan bajarilishi bilan bog‘lik maxsus xarakatlar, ularning xizmat vazifasining asosi bo‘lgan sport turlaridir.

Harbiy-amaliy sport turlari qoidalari O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq belgilanadi.

Harbiy-amaliy sport turlarining xar biri uchun aloxida qoidalar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishgan xolda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Harbiy-amaliy sport turlarini ro'yxatdan o'tkazish va uning maqomini belgilashda sport turlarini va sport turining tarmoqlarini e'tirof etish, ularni sport turlari reyestriga kiritish xamda ushbu reyestrni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Harbiy-amaliy sport turlari qoidalari milliy armiya xizmat faoliyatida qo'llanilib kelinayotgan sport turlariga nisbatan ishtirokchilar xamda xakamlar tomonidan musobaqa jarayonlaridan kelib chiqqan xolda belgilanadi.

Armiya tizimida harbiy-amaliy sport turlari harbiy xizmatchilarda jangovar va o'z ixtisosligiga oid boshqa vazifalarni hal etish uchun zarur bo'ladigan jismoniy sifatlarini talab darajasida saqlab, yanada rivojlantirish va yuksak ma'naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Fuqorolik jamiyati tizimida harbiy-amaliy sport turlari yosh avlodlarda (harbiy sohaga oid o'quv muassasalarida o'qiyotgan yosh avlodlar) harbiy sohaga oid boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarini haqiqiy harbiy xizmatga yo'nalishga har tomonlama tayyorlab borish, ularda ona Vatanga sadoqat hamda yuksak ma'naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalab borishdan iboratdir.

Harbiy-amaliy sport turlari musobaqalari va mazkur sport turlari bilan shug'ullanishning asosiy vazifalari shug'ullanuvchilarning:

- chidamlilik, kuchlilik, tezlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirib, talab darajasida saqlab borish;
- yurish qiyin kechadigan hududlarda piyoda harakatlanish, tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tish ko'nikmalari, qo'l jangi amallarini dadil bajarish va harbiy-amaliy suzish ko'nikmalarini shakllantirish;
- jismonan kamol topishini yaxshilash, sog'ligini mustahkamlash, atrof-muhit va harbiy-professional faoliyatning salbiy ta'sirlariga nisbatan organizmining chidamlilik sifatlarini oshirish kiradi.

Harbiy-amaliy sport turlari shug'ullanish va musobaqalarida ishtirok etish jarayonida harbiy xizmatchilarning va yosh o'sib kelayotgan avlodlarning nazariy bilimlari va tashkiliy-uslubiy ko'nikmalari shakllantiriladi.

Harbiy-amaliy sport turlari jamiyatda jamoalarning hamda harbiy bo'linmalar shaxsiy tarkiblarining maxsus-harbiy tayyorgarlik darajasi yanada oshishi, ma'naviy-ruhiy sifatleri puxta tarbiyalanishi, ularning jangovar hamjihatligi takomillashishiga omil bo'ladi.

Harbiy-amaliy sport turlari musobaqalari va shug'ullanish dasturlariga kiritiladigan sport turlari hamda mashqlari:

- harbiy ko‘pkurash sport majmuyi – 100 metr masofaga yugurish, to‘siqlarni yengib o‘tish, turnikda tortilish, yosh gurdiga qarab 1000, 2000 va 3000 metr masofalarga yugurish;

- ofitserlar uchkurashi – 100 metr masofaga erkin suzish, Makarov to‘pponchasidan otish, yosh gurdiga qarab 1000, 2000 va 3000 metr masofalarga yugurish;

- harbiy uchkurash – 100 metr masofaga yugurish, garanatani aniqlikga uloqtirish, 3000 metr masofaga anjom-aslaha (qurol) bilan yugurish;

- besh kurash – 100 metr masofaga yugurish, to‘siqlarni yengib o‘tish, turnikda tortilish, yosh gurdiga qarab 1000, 2000 va 3000 metr masofalarga yugurish, Kalashnikov avtomatidan otishlar;

- sport mo‘ljali – haritadan yugurib xarakatlanish yo‘nalishini o‘rganis;

- 8 km masofaga ega bo‘lgan 8 ta nazorat nuqtalaridan yugurib o‘tish;

- o‘q-otish sporti – Makarov to‘pponchasidan hamda Kalashnikov avtomatidan otishlar;

- universal jang – universal jang to‘siqlarni yengib o‘tish, pnevmatik quoldan otish, nishonlarga pichoq uloqtirish va qo‘l jangi;

- qo‘l jangi;

- pichoq jangi;

- boks;

- tosh ko‘tarish sporti – 24 kilogrammi toshlarni siltab va dast ko‘tarish;

- sport va serxarakat o‘yinlar – futbol, voleybol, basketbol, regbi, kichik futbol, plyaj voleyboli, stol tennisi, badminton va boshqalar.

Harbiy-amaliy sport turlari bo‘yicha Respublika musobaqalarini o‘tkazishda Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 29 iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini” ga muvofiq, Mudofaa vazirligi miqiyosida esa Mudofaa Vazirligining jismoniy tayyorgarlik yo‘nalishidagi tegishli normativ-xuquqiy xujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Harbiy-amaliy sport turlari bo‘yicha o‘quv-mashq mashg‘ulotlari yig‘ini hamda sport musobaqalari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining jismoniy tayyorgarlik va sport bo‘limi tomonidan tasdiqlangan o‘quv va sport musobaqalari dasturlariga muvofiq o‘tkaziladi.

Harbiy-amaliy sport turlari bo‘yicha musobakalariga xakamlik jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatga ega sport xakami toifalari mavjud bo‘lgan shaxslar hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy-amaliy olimpiya sport turlari bo‘yicha umumarmiya o‘yinlari

Harbiy-amaliy Olimpiya sport turlari bo'yicha Umumarmiya o'yinlari (matn davomida HAOSTBUO' deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi sport tizmida belgilangan "Umid nixollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi O'zbekiston Respublikasi Qurorli Kuchlari (matn davomida O'R QK deb yuritiladi) miqiyosida harbiy xizmatchilar orasida bo'lib o'tadigan harbiy-amaliy sport turlari musobaqalaridir.

Harbiy-amaliy Olimpiya sport turlari bo'yicha Umumarmiya o'yinlarini o'tkazishdan ko'zlagan maqsad:

- harbiy xizmatchilarning chidamlilik, kuchlilik, tezlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirib, talab darajasida saqlab borish;
- harbiy xizmatchilarning jismonan kamol topishini yaxshilash, sog'ligini mustahkamlash, atrof-muhit va harbiy-professional faoliyatning salbiy ta'sirlariga nisbatan organizmining chidamlilik sifatlarini oshirish;
- harbiy bo'linmalarining shaxsiy tarkiblarini maxsus-harbiy tayyorgarlik darajasi yanada oshishi, ma'naviy-ruhiy sifatleri puxta tarbiyalanishi, ularning jangovar hamjihatligi takomillashtirish;
- yuqori natijalarga erishadigan harbiy sportchilarni O'zbekiston terma jamoalari tarkibida halqaro sport maydonlarida ishtirok ettirish uchun yetkazib berish.

O'zbekiston Respublikasi Qurorli Kuchlari miqiyosida (Mudofaa vazrligi rahbarligida) 2004 yildan boshlab to 2012 yilga qadar har ikki yilda ya'ni 2004 yilda I-chi, 2006 yilda II-chi, 2008 yilda III-chi, 2010 yilda IV-chi, 2012 yilda V-chi Umumarmiya o'yinlari bo'lib o'tdi. 2016 yildan boshlab har uch yilda ya'ni 2016 yil VI-chi, 2019 yilda VII-chi Umumarmiya o'yinlari bo'lib o'tdi. Navbatdagi VIII-chi Umumarmiya o'yinlari 2022 yilda bo'lib o'tgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmuhamedov, B. (2014). Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'limning roli. Tashkent: O'zbekiston ta'limi va madaniyati.
2. Ergashev, A. (2017). Vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi. Tashkent: Akademnashr.
3. Sayfiddinov, T. (2016). Harbiy xizmatga tayyorlash: tarbiya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Mirzaev, M. (2015). Oila va jamiyatda yoshlarni tarbiyalash. Tashkent: O'zbekiston ijtimoiy fanlari.
5. Xudoyberganov, Sh. (2012). Sport va yoshlar tarbiyasida yangi yo'nalishlar. Tashkent: Yangi avlod
6. Rizaev, F. (2018). Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Tashkent: Iqtisodiyot va ta'lim.
7. Turaeva, N. (2019). Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: nazariya va amaliyot. Tashkent: O'zbekiston pedagogika va tarbiya instituti.

8. Shodmonov, S. (2020). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yangi metodikalar. Tashkent: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi nashriyoti